



XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 5-iyun

VII-12-102-5-78-K/25

Zarafshon shahar

Xalq deputatlari shahar Kengashi uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid uslubiy tavsiyalarni tasdiqlash to'g'risida

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan topshiriqlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid uslubiy tavsiyalarni tasdiqlash to'g'risida" 2025-yil 6-maydagi KQ-174-V-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid uslubiy tavsiyalarni tasdiqlash to'g'risida" 2025-yil 6-maydagi KQ-174-V-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari mahalliy Kengashi uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid uslubiy tavsiyalar ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Xalq deputatlari shahar Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga:

qaror bilan tasdiqlangan Uslubiy tavsiyalarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash;

har oyda bir yo'nalishda korrupsiyaviy omillarni aniqlab, ushbu masalalarni mahalliy Kengash sessiya muhokamasiga kiritib borish amaliyotini yo'lga qo'yish;

sessiya muhokamalaridan keyin xalq deputatlari viloyat Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish Navoiy viloyati hududiy Kengashiga taklif kiritib borish ishlarini tashkil qilish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati mudiri E.Davlatov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RAXMANOV
NAZIRBEK
ISRAILOVICH

Xalq deputatlari Zarafshon shahar
Kengashining
2025-yil 5-iyundagi
VII-12-102-5-78-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashishga oid uslubiy tavsiyalar

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Uslubiy tavsiyalar xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari yuzasidan faoliyatini samarali tashkil qilishga qaratilgan bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish tartib-taomillari va mexanizmlarini belgilaydi.

2. Ushbu Uslubiy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari va boshqa qonun hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan.

3. Mazkur uslubiy tavsiyalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanadi:

korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to'qnashuvi - shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar – korrupsiyaning ko'rinishlari uchun, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish uchun imkoniyat yaratadigan normalar;

normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi - normativ-huquqiy hujjatlardagi va ularning loyihalaridagi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashga, aniqlangan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va choralar ko'rishga yo'naltirilgan tadbirlar majmui;

4. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

hududda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o'rganish hamda ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga ko'maklashish;

korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishda ishtirok etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan ta'sirchan deputatlik nazoratini ta'minlash;

davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan o'zaro hamkorlik qilish;

aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga, ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga ko'maklashish.

Qonunchilik hujjatlarida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining zimmasiga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida boshqa vazifalar yuklatilishi mumkin.

2-bob. Mahalliy Kengashlarning norma ijodkorligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish

5 Mahalliy Kengashlarning norma ijodkorligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishning maqsadi - deputatlar, doimiy (muvaqqat) komissiyalar, partiya guruhlar yoki boshqa tashabbuskorlar tomonidan mahalliy Kengash qarori loyihasini ishlab chiqish, uni sessiyada muhokama qilish va qabul qilish jarayonida korrupsiya xavfining oldini olish, shuningdek, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashdan iborat.

6. Mahalliy Kengash qarori loyihasida korrupsiya holatlari vujudga kelishiga sharoit yaratadigan normalar (bandlar), shuningdek, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ko'zda tutilishi taqiqlanadi.

7. Mahalliy Kengash qarori va uning loyihasidagi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

normalarning barqarorligi va huquqiy jihatdan muvofiqligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar;

vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar;

ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar.

8. Normalarning barqarorligi va huquqiy jihatdan muvofiqligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi;

noaniq va asossiz havolalarning qo'llanilishi;

normativ-huquqiy hujjatlarda qarama-qarshiliklarning mavjudligi.

9. Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

diskretion vakolatlarining kengligi;

vakolatlarining noaniqligi;

bir-birini takrorlovchi vakolatlar va vazifalarning mavjudligi;

o'z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar qabul qilinishi;

vazifani yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida zarur bo'lgan vakolatlar va resurslarining mavjud emasligi;

o'z vaqtida tartibga solinmaslik;

manfaatlar to'qnashuvi;

afzalliklarning asossiz ravishda belgilanishi;

normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish;

huquq va majburiyatlarning nomutanosibligi.

10. Ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi;

belgilangan qoidalaridagi istisno holatlarning asossiz ravishda qo'llanilishi;

ortiqcha va asossiz talablar belgilanishi;

vaqt chegaralarining noaniqligi;

to'lovlar miqdorlarining noaniqligi;

mahalliy budjet, uning qo'shimcha manbalari mablag'lari sarflanishining aniq va shaffof tartib-taomillari mavjud emasligi;

solislar va yig'implarni hisoblash hamda undirish tartib-taomillarining murakkabligi yoki noaniqligi;

davlat xaridlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha aniq va shaffof tartib taomillarning mavjud emasligi;

huquq va imtiyozlar beruvchi hamda ma'muriy tartib-taomillarni belgilaydigan tanlov (auksion, tender) tartib-taomillaridan bo'yin tovlash imkoniyatini beruvchi normalarning mavjudligi;

tadbirlarni amalga oshirish usullarining murakkabligi va ularni moliyalashtirish manbalarining noaniqligi.

11. Ushbu bobda nazarda tutilgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash maqsadida mahalliy Kengash qarori loyihasi tegishincha xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar Kengashi kotibiyatining bosh yuriskonsulti, tuman (shahar) adliya bo'limi huzuridagi Yuridik xizmat markazi tomonidan o'tkaziladi.

12. Qaror loyihasining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi natijalariga ko'ra xulosa tuziladi. Qaror loyihasining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi natijalari huquqiy ekspertizani o'tkazish natijalari bo'yicha tuziladigan xulosada ham aks ettirilishi mumkin.

13. Mahalliy Kengash qarori loyihasining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi natijalari bo'yicha tuzilgan xulosada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

qaysi normativ-huquqiy hujjatga ko'ra qaror loyihasini ishlab chiqish topshirilgan bo'lsa, o'sha normativ-huquqiy hujjat to'g'risidagi ma'lumotlar (nomi, qabul qilingan sanasi, raqami, e'lon qilingan rasmiy manbasi, topshiriq bayon etilgan tegishli moddasi yoki bandi (kichik bandi, xatboshisi), shuningdek, yuqori turuvchi organning topshiriqlari yoki tashabbuskor davlat organi to'g'risidagi ma'lumotlar (organning nomi, topshiriqning (topshiriq mavjud bo'lganda) raqami va sanasi, zarur bo'lgan taqdirda, topshiriq bergan mansabdor shaxs);

qaror loyihasining mohiyati va ahamiyatining qisqacha bayoni;

korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillar mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotlar (tegishli xulosa asoslantirilgan holda);

aniqlangan korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga doir (ularni bartaraf etish choralari ko'rsatilgan holda) takliflar va tavsiyalar.

14. Qaror loyihasining korruptsiyaga qarshi ekspertizasi natijalari bo'yicha xulosa mahalliy Kengash qarori loyihasini ishlab chiquvchi hamda mahalliy Kengash tomonidan majburiy ravishda ko'rib chiqilishi lozim.

15. Mahalliy Kengash qarorlari loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasi Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi qarorlari loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish uslubiyotida ko'rsatilgan huquqiy ekspertiza muddati ichida o'tkaziladi.

16. Qaror loyihasida korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omil aniqlangan taqdirda qaror loyihasini ishlab chiquvchi yoki mahalliy Kengash tomonidan uni bartaraf etish choralari ko'riladi.

17. Mahalliy Kengash qarori loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan taqdirda loyiha yuzasidan korruptsion omil mavjudligi bo'yicha kelib tushgan firk-mulohazalar majburiy ravishda ko'rib chiqilishi, ular rad etilgan taqdirda asoslantirilishi lozim.

3-bob. Mahalliy budjetni tasdiqlash va uning ijrosini nazorat qilishda korruptsiyaga qarshi kurashish

18. Ushbu bobning maqsadi mahalliy budjetni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va uning ijrosini nazorat qilishda korruptsiya xavf-xatarlarining oldini olish, shuningdek, budjet jarayonining shaffofligi va hisobdorligini oshirishdan iborat.

19. Budjet jarayonidagi korruptsiyaga oid xavf-xatarlar quyidagi bosqichlarda vujudga kelishi mumkin:

mahalliy budjet loyihasini tuzish (budjet takliflarini shakllantirishda shaffoflikning yo'qligi;

shaxsiy manfaatlarni ilgari surish;

dasturiy maqsadga yo'naltirilgan yondashuvga e'tibor bermaslik);

mahalliy budjetni mahalliy Kengashda ko'rib chiqish va tasdiqlash (manfaatlar to'qnashuvi; muhokamalarda va tuzatishlarda shaffoflikning yo'qligi; daromad va xarajatlar prognozlarini asossiz ravishda o'zgartirish; jamoatchilik ishtirokinining yo'qligi);

mahalliy budjet ijrosini ta'minlash (budjet mablag'larini maqsadsiz sarflanishi, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etmaslik;

budjet ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirish; xarajatlarning samaradorligi ustidan nazoratning sustligi);

mahalliy budjet ijrosini nazorat qilish (budjet ijrosi ustidan tekshiruvlarning yetarli emasligi;

tekshiruvni (nazoratni) amalga oshiruvchi shaxslarning yetarli ko'nikmalarga ega emasligi;

aniqlangan kamchiliklarga nisbatan ta'sirchan choralar ko'rilmasligi) va boshqalar.

20. Ushbu bob 19-bandida nazarda tutilgan korruptsiyaga oid xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida quyidagi choralar ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

shaffoflikni oshirish - budget jarayonini raqamlashtirish, uning barcha bosqichlarini ochiq manbalarda e'lon qilib borish, davlat xaridlarining ochiqligini ta'minlash;

manfaatlar to'qnashuvini boshqarish - manfaatlar to'qnashuvi bo'lgan shaxslarni qarorlar qabul qilish jarayonidan chetlashtirish;

jamoatchilik nazorati budget jarayonini nazorat qilish uchun jamoatchilik vakillari ishtirokini ta'minlash, shu jumladan budget ijrosini o'rganishga oid nazorat-tahlil tadbirlariga va muhokamalarga fuqarolarni jalb qilish, fuqarolarning budget jarayonini monitoring qilish imkoniyatlari haqida xabardorligini oshirish;

deputatlik nazorati budget ijrosini baholash uchun mustaqil auditorlarni jalb qilish, budget ijrosini bevosita joyiga chiqqan holda o'rganish, huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda bu haqdagi axborot darhol huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish.

21. Mahalliy Kengash tomonidan budget loyihasini ko'rib chiqishda u maqsad va kutilayotgan natijalarning shaffofligini ta'minlovchi dasturiy maqsadli tamoyil asosida shakllantirilganligiga e'tibor qaratiladi. Zarur hollarda, mahalliy Kengash budget xarajatlarining asoslilikini baholash uchun mahalliy Kengash huzuridagi ekspertlik guruhi a'zolarini, shuningdek, mustaqil ekspertlarni jalb qilishi mumkin.

22. Mahalliy Kengash sessiyasida budget loyihasini ko'rib chiqish va muhokama qilishda "mahalla yettiligi", jamoatchilik vakillari taklif etilishi mumkin.

23. Mahalliy budgetga asoslantirilmagan, shuningdek, jamoatchilik muhokamasisiz o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin emas.

Mahalliy budgetga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi mahalliy Kengash qarorida ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar kimning taklifi asosida kiritilganligi aniq ko'rsatilishi shart.

24. Mahalliy budget ijrosining borishi to'g'risidagi hisobotlar har chorakda mahalliy Kengashning rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi.

4-bob. Davlat organlari va tashkilotlarining hisobot (axborot)larini eshitishda korrupsiyaga qarshi kurashish

25. Ushbu bobning maqsadi davlat organlari va tashkilotlari mansabdor shaxslarining hisobot (axborot)larini eshitishni tashkil etish orqali mahalliy Kengashlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada eshituvlarni tashkil etish va o'tkazish masalasida yagona yondashuvni shakllantirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiya xavfini aniqlashga ko'maklashish, davlat organlarining vakillik organlari va jamiyat oldidagi ochiqligi va hisobdorligini oshirishdan iborat.

26. Mahalliy Kengash tomonidan davlat organlari va tashkilotlarining hisobot (axborot)larini eshitishda korrupsiyaga qarshi kurashish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi tegishli davlat organi mansabdor shaxsining hisoboti (axboroti)ni eshitish (Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi vakili, tegishli hudud prokurori, hududiy ichki ishlar, adliya organi rahbari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining hududiy bo'linmasi vakili);

davlat organlari va tashkilotlarining hisoboti (axboroti)ni eshitish jarayonida ularning sohada korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini muhokama qilish.

27. Davlat organi va tashkiloti mansabdor shaxsining hisoboti (axboroti)ni eshitish bo'yicha nazorat-tahlil tadbiri rejalashtirishdan boshlanadi. Hisobot (axborot)ni eshitish rejalashtirishda birinchi navbatda tegishli hududda korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan sohalarda funksiyalarni bajaradigan davlat organlari, tashkilotlari tanlab olinadi.

28. Davlat organi yoki tashkiloti mansabdor shaxsi mahalliy Kengashga hisobot (axborot)ni yozma shaklda quyidagi bo'limlarni inobatga olgan taqdim etadi:

davlat organi va tashkilotining tegishli davrdagi faoliyatining umumiy tavsifi;

korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ko'rilgan choralar (shu jumladan, korrupsiyaga qarshi standartlar, xodimlarni o'qitish, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va boshqalar);

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlari va ko'rilgan choralar to'g'risida ma'lumot;

ichki nazorat va korrupsiya xavf-xatarlari monitoringi natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar va takliflar.

29. Davlat organi yoki tashkiloti mansabdor shaxsi mahalliy Kengashga hisobot (axborot)ni ushbu masala sessiyada muhokama qilinishidan kamida 10 kun oldin tasdiqlovchi hujjatlar (statistik ma'lumotlar, tekshirish hisobotlari va boshqalar)ni ilova qilgan holda taqdim qiladi.

30. Mahalliy Kengash tomonidan davlat organi yoki tashkiloti mansabdor shaxsining hisoboti (axboroti)ni tahlil qilish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

hisobot (axborot)dagi ma'lumotlarni mustaqil o'rganish va monitoring natijalari bilan solishtirish;

davlat organlari va tashkilotlarining xabarlarini ko'rib chiqish;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid murojaatlari, ommaviy axborot vositalari, Internet jahon axborot tarmog'i va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilgan materiallarni tahlil qilish;

oldingi eshituvlardan so'ng berilgan tavsiyalarning bajarilishini baholash va boshqalar.

31. Mahalliy Kengash tomonidan davlat organi yoki tashkiloti mansabdor shaxsining hisoboti (axboroti)ni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligi va haqqoniyligi;

korrupsiyaga qarshi amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligi;

aniqlangan qoidabuzarliklarga o'z vaqtida tezkorlik bilan chora ko'rilganligi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlik darajasi va boshqalar.

32. Mahalliy Kengash sessiyasida tegishli mansabdor shaxsning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hisoboti (axboroti)ni muhokama qilish jarayonida deputatlar tomonidan quyidagi masalalarga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalari;

normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi dasturlarning amalga oshirilishini ta'minlash borasidagi ishlar;

tegishli davrda korrupsiya xavfini minimallashtirish bo'yicha ko'rilgan choralar;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, bunga imkon beruvchi omillarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi;

faoliyat ochiqligini ta'minlash, raqamlashtirish, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish;

faoliyat davomida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar;

davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonidagi korrupsion holatlar va ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid murojaatlari hamda ularni ko'rib chiqish natijalari;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar va boshqalar.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

33. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, ularning doimiy komissiyalari va deputatlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid faoliyatini axborot-tahliliy va tashkiliy jihatdan ta'minlash mahalliy Kengash kotibiyati tomonidan amalga oshiriladi. Kotibiyat ularni zarur hujjatlar, axborot va ma'lumot materiallari, shuningdek, ushbu faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mutaxassislarning maslahatlari bilan ta'minlaydi.

34. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, ularning doimiy komissiyalari va deputatlar korrupsiyaga qarshi kurashishga doir faoliyatni amalga oshirishda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus tuzilmalar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

35. Mahalliy Kengashlar raislari Uslubiy tavsiyalar talablariga rioya qilish uchun shaxsan mas'uldir.

36. Mazkur Uslubiy tavsiyalarda belgilangan talablar buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

37. Ushbu Uslubiy tavsiyalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, uni o'z kuchini yo'qotgan deb topish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining Qarori bilan amalga oshiriladi.